

**TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI  
KREDITLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH (ANORBANK AJ MISOLIDA)**

**Yodgorov Umidjon Komil o'g'li**

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

[umidjonyodgorov1997@gmail.com](mailto:umidjonyodgorov1997@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16760097>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston tijorat banklarining, xususan, Anorbank AJ misolida tadbirkorlik subyektlarini kreditlash tizimidagi amaliyotlari, ularning samaradorligi va mavjud muammolari chuqur tahlil qilinadi. Tahlillar asosida kreditlash jarayonida uchrayotgan asosiy to'siqlar, garov ta'minotiga bo'lgan yuqori talablar, kredit tarixi va foiz stavkalarining biznes rivojiga ta'siri o'rganiladi. Shuningdek, bankning raqamli kreditlash xizmatlarini joriy etish, imtiyozli kredit liniyalarini kengaytirish, moliyaviy savodxonlikni oshirish orqali tadbirkorlikni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi.

Maqola natijalari Anorbank AJning amaliy faoliyatini rivojlantirish hamda O'zbekiston bank tizimida tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha ishonchli ilmiy va amaliy manba bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** tijorat banklari, tadbirkorlik subyektlari, kreditlash tizimi, moliyalashtirish, Anorbank AJ, kichik biznes, o'rta biznes, kredit riski, garov ta'minoti, imtiyozli kreditlar, raqamli moliyalashtirish, bank xizmatlari, moliyaviy savodxonlik, bank siyosati.

**Abstract.** This article provides an in-depth analysis of the practices of commercial banks of Uzbekistan, in particular, on the example of Anorbank JSC, in the system of lending to business entities, their effectiveness and existing problems. Based on the analysis, the main obstacles encountered in the lending process, high requirements for collateral, the impact of credit history and interest rates on business development are studied. Also, proposals are developed to improve the system of financing entrepreneurship by introducing digital lending services of the bank, expanding preferential credit lines, and increasing financial literacy. The results of the article serve as a reliable scientific and practical source for developing the practical activities of Anorbank JSC and supporting entrepreneurship in the banking system of Uzbekistan.

**Keywords:** commercial banks, business entities, lending system, financing, Anorbank JSC, small business, medium business, credit risk, collateral, preferential loans, digital financing, banking services, financial literacy, banking policy.

**Kirish:** Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ularning barqaror faoliyat yuritishi ko'p jihatdan moliyaviy resurslarga, xususan, tijorat banklari tomonidan taqdim etilayotgan kredit mablag'lariga bog'liq. So'nggi yillarda O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish maqsadida bir qator islohotlar amalga oshirildi, bunda banklar faol ishtirok etmoqda. Ayniqsa, zamonaviy texnologiyalarni faol tatbiq etayotgan va mijozlarga yo'naltirilgan yondashuvni shakllantirayotgan Anorbank AJ misolida tadbirkorlik subyektlarini kreditlash tizimidagi yutuq va muammolarni o'rganish dolzarb ahamiyat kasb

etadi. Shu sababli, ushbu maqolada Anorbank AJ tajribasida tadbirkorlikni kreditlash tizimi holati tahlil qilinib, uni takomillashtirish yo'llari asoslab beriladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.** Tadbirkorlik subyektlarini kreditlash masalasi bo'yicha O'zbekistonda olib borilgan tadqiqotlar bank sektorining iqtisodiyotni moliyaviy qo'llab-quvvatlashdagi rolini chuqur yoritadi. Jumladan, Sukhrob Nematulloyev (2024) o'zining "The Role of Commercial Banks in Financing Small Businesses in Uzbekistan" nomli tadqiqotida tijorat banklarining kichik biznesni moliyalashtirishdagi o'rni va ahamiyatini keng tahlil qilgan. U kredit strategiyalarini takomillashtirish, investitsion resurslar oqimini samarali yo'naltirish hamda sarmoyadorlar manfaatlarini uyg'unlashtirishga alohida e'tibor qaratadi.

Tadqiqotda O'zbekistondagi banklar tomonidan ishlab chiqilgan innovatsion kredit mahsulotlari hamda ularning kichik tadbirkorlik rivojiga ta'siri empirik usullarda o'rganilgan.

Shuningdek, Cuddapah Dhananjaya Rao (2025) tomonidan taqdim etilgan "A Conceptual Framework for Analyzing the Performance of Commercial Banks in Uzbekistan" nomli konseptual tadqiqotida 2019–2024-yillar oralig'ida tijorat banklarining faoliyati tizimli ravishda o'rganilgan. Muallif banklar faoliyatini baholashda uchta asosiy indikator — likvidlik darajasi, aktiv sifati va kredit portfeli o'sishini asosiy omillar sifatida ko'rsatadi. Ushbu model orqali tijorat banklarining kichik va o'rta biznes subyektlariga ajratgan kreditlarining rentabelligi va xavf darajasi aniqlanadi. Bu yondashuv O'zbekiston moliya tizimida banklar samaradorligini baholash uchun muhim ilmiy asos hisoblanadi.

Yana bir muhim tadqiqot sifatida WJARR (2024) ilmiy jurnali tomonidan chop etilgan "The Challenges of Commercial Banks for Financing Project" nomli maqolani ko'rsatish mumkin. Unda O'zbekiston bank tizimida kichik biznesni moliyalashtirishdagi mavjud muammolar – yuqori operatsion xarajatlar, kredit strategiyasining barqaror emasligi, qarzdorlikni boshqarishdagi zaifliklar keng tahlil qilingan. Maqolada amaliy tavsiyalar sifatida banklarda mijozga yo'naltirilgan yondashuvni kuchaytirish, garovsiz kreditlar hajmini oshirish va kredit olish jarayonini soddalashtirish taklif etiladi.

Rossiyada esa ushbu sohada olib borilgan tadqiqotlar davlatning subsidiyalangan kredit dasturlari, ikki bosqichli kreditlash tizimlari va makroiqtisodiy omillarning ta'sirini o'rganishga yo'naltirilgan. Masalan, E. Bessonova (2024) "Effect of Subsidized Lending Programs on SMEs in Russia" nomli tadqiqotida Rossiya Markaziy banki tomonidan moliyalashtirilgan subsidiyalangan kredit dasturlarining kichik va o'rta biznesga ta'sirini statistik usullar orqali tahlil qiladi. Natijalarga ko'ra, ushbu dasturlar savdo hajmining 10–11 foizga va ishchilarning sonining 4–7 foizga oshishiga sabab bo'lgan. Bu kredit mexanizmlarining real iqtisodiyotga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

A. Bakaykina (2024) esa "Determinants of SME Support Participation in the Russian Two-Tier System" nomli maqolasida Rossiyadagi ikki bosqichli kredit kafolat tizimi faoliyatini tahlil qiladi. U turli hududlardagi tadbirkorlik subyektlarining mazkur tizimda ishtirok etishiga ta'sir etuvchi omillarni (kredit tarixi, bank bilan munosabat, sektor xususiyatlari) chuqur o'rganadi. Tadqiqot, ayniqsa, davlat va xususiy banklarning o'zaro integratsiyasi asosida kafolat mexanizmlarining samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy takliflar beradi.

Shuningdek, T. Shpilkina va hammualliflar (2024) tomonidan yozilgan “Prospects for SMEs Until 2030 in Russia” nomli tadqiqotda Rossiya hududida kichik va oʻrta biznesni kreditlash istiqbollari, makroiqtisodiy jarayonlar, ayniqsa, Markaziy bankning pul-kredit siyosati va foiz stavkalarining SME kreditlashiga taʼsiri keng koʻlamda tahlil qilingan. Mualliflar 2017–2024 yillar oraligʻida kreditlash hajmlari, kredit stavkalari dinamikasi va moliyalashtirish manbalarining xilma-xilligini empirik maʼlumotlar asosida oʻrganib, 2030-yilgacha boʻlgan prognozlarni ham taqdim etadilar.

Yevropa davlatlarida kichik va oʻrta biznes subyektlarini moliyaviy qoʻllab-quvvatlash doirasida kreditlash mexanizmlari, risklarni boshqarish va yashil iqtisodiyotga integratsiya jarayonlari boʻyicha bir qator muhim ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, A. Botsari va hammualliflar (2024) tomonidan taqdim etilgan “European Small Business Finance Outlook” (ESBFO) hisobotida Yevropa Investitsiya Fondi doirasida SME moliyalashtirishining zamonaviy tendensiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda kredit kafolatlari, mikromoliya vositalari va venture capital yondashuvlari orqali kichik biznesga ajratilayotgan moliyaviy resurslarning samaradorligi baholangan. Ayniqsa, iqtisodiy inqirozlar davrida kafolat mexanizmlarining tadbirkorlik subyektlari uchun barqaror moliyaviy qoʻllab-quvvatlash vositasi boʻlib xizmat qilishi qayd etiladi.

Yevropadagi muhim tadqiqotlardan biri bu — Y. Ghulam (2025) tomonidan yozilgan “SMEs’ Access to Bank Financing During the Financial Crises in Europe” nomli maqoladir.

Unda SAFE (Survey on the Access to Finance of Enterprises) asosida 2009–2012 yillardagi global moliyaviy inqiroz davrida kredit olish imkoniyatlarining keskin kamaygani va bu holat keyingi yillarda bosqichma-bosqich tiklanganini koʻrsatadi. Muallif tadbirkorlarning kredit olishdagi toʻsiqlari, ayniqsa, banklar tomonidan rad etilish holatlari, yuqori foiz stavkalari va murakkab hujjat talablari bilan bogʻliqligini asoslab beradi. Bu tadqiqot bank tizimining iqtisodiy shoklarga chidamliligini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, L. Zheng (2025) tomonidan taqdim etilgan “Sustainable Lending to European SMEs” nomli tadqiqotda 2013–2023 yillar davomida Yevropa banklarining yashil moliyalashtirish amaliyoti va uning rentabellikka taʼsiri oʻrganilgan. ANDEZ banki misolida oʻtkazilgan tahlilga koʻra, barqaror energetika, ekologik toza texnologiyalar va ijtimoiy masʼuliyatli bizneslarga yoʻnaltirilgan kreditlar, nafaqat ekologik foyda, balki banklar uchun moliyaviy jihatdan ham yuqori rentabellik keltirgan. Bu esa ESG (Environmental, Social and Governance) tamoyillarining bank tizimida muvaffaqiyatli integratsiyalashayotganini koʻrsatadi.

Osiyo va xalqaro miqyosda olib borilgan tadqiqotlar esa SME kreditlashning tizimli tahlilini, rivojlanayotgan mamlakatlardagi muammolarni va global moliyalashtirish tendensiyalarini yoritib beradi. Masalan, OECD (2024) tomonidan tayyorlangan “Financing SMEs and Entrepreneurs 2024” hisobotida 50 dan ortiq mamlakatdagi moliyalashtirish koʻrsatkichlari, inflyatsiya sharoitida kredit shartlarining ogʻirlashuvi va yangi siyosiy choralar (raqamli kreditlar, imtiyozli grantlar) tahlil qilingan. Hisobotga koʻra, ayniqsa pandemiya keyin koʻplab davlatlar tadbirkorlarni qoʻllab-quvvatlashda davlat kafolatlari va soddalashtirilgan kredit liniyalaridan foydalanishni kengaytirgan.

Shuningdek, World Bank (2017) tomonidan tayyorlangan “Survey of National Development Banks” tadqiqoti rivojlanayotgan mamlakatlardagi davlat taraqqiyot banklarining

SME kreditlashdagi rolini o'rganadi. Tadqiqotda kredit registrlari, moliyaviy shaffoflik va axborot bazalarining mavjud emasligi kreditlash jarayonida muhim to'siq bo'lib qolayotganini ta'kidlaydi. Mualliflar bu kabi kamchiliklarni bartaraf etish uchun moliyaviy infratuzilmani raqamlashtirish va davlat xususiy sektor hamkorligini kuchaytirishni tavsiya etadi.

World Bank global tahlili (OpenKnowledge) doirasidagi "SME Finance" nomli umumiy sharhda rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda kichik biznesni moliyalashtirishdagi eng muhim to'siqlar — asimmetrik ma'lumotlar, bozor kuchining notekis taqsimlanishi, garovsiz kreditlar mavjud emasligi va banklar tomonidan yuqori darajadagi xavfsizlik talablarining mavjudligi chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, mazkur muammolarni hal qilishda davlat siyosatining barqarorligi va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning amaliy holati, xususan, Anorbank AJ misolida tahlil qilindi. Tadqiqot yondashuvi sifatida deskriptiv va tahliliy usullar qo'llanildi. Bunda bankning yillik hisobotlari, rasmiy statistik ma'lumotlar, regulyatorlarning normativ hujjatlari, shuningdek, xalqaro tashkilotlarning SME kreditlashga oid ma'lumotlari asosiy manba sifatida tanlab olindi. Ushbu usullar orqali bank kredit portfelining hajmi, o'sish sur'ati, kredit oluvchilar tarkibi, kreditlarning muddati va ta'minoti kabi ko'rsatkichlar bo'yicha chizmalar va jadval asosida tahlil olib borildi.

Tadqiqotda empirik metod asosida Anorbank AJning 2020–2024-yillardagi kreditlash amaliyoti chuqur o'rganildi. Tahlil jarayonida bank tomonidan ajratilgan kreditlar hajmi, sektorlar kesimidagi taqsimoti, imtiyozli kreditlarning ulushi, shuningdek, kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlari bo'yicha statistik ma'lumotlar solishtirildi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Iqtisodiy taraqqiyot vazirligi hamda Davlat statistika qo'mitasining rasmiy axborotlariga asoslanib, makroiqtisodiy omillar bilan bog'liqlik ham o'rganildi. Bu usul orqali kreditlash faoliyatining real iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri aniqlanib, bank faoliyatidagi mavjud muammolar tizimli yondashuvda baholandi.

Tadqiqot doirasida, shuningdek, solishtirma tahlil (benchmarking) yondashuvi qo'llanilib, Anorbank AJ kreditlash siyosati boshqa tijorat banklari, jumladan, Xalq banki, Mikrokreditbank, va Ipoteka-bank amaliyotlari bilan taqqoslandi. Bu orqali kredit strategiyasining samaradorlik darajasi, raqamli kreditlash texnologiyalari, garovsiz kreditlar ulushi va mijoz bilan ishlash mexanizmlaridagi farqlar aniqlanib, takomillashtirish uchun aniq yo'nalishlar ishlab chiqildi. Solishtirma tahlil Anorbank AJ faoliyatining afzalliklari va zaif tomonlarini aniqlash, shuningdek, boshqa banklar tajribasidan o'rnak olish imkonini berdi.

**Tahlil va natijalar.** O'zbekiston iqtisodiy siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash borasida so'nggi yillarda sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Ayniqsa, tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlarning hajmi va ulardan foydalanuvchi subyektlar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Quyidagi 1-jadvalda Anorbank AJ tomonidan tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kreditlar hajmi va kredit oluvchilar sonining 2021–2024-yillardagi o'sish dinamikasi aks ettirilgan.

**1-jadval**

**Anorbank AJ tomonidan tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kreditlar hajmi (2021–2024)**

Yil	Ajratilgan kreditlar (mlrd so'm)	Kredit oluvchilar soni (ming)
2021	580	4.1
2022	735	5.0
2023	910	6.2
2024	1120	7.5

Manba: <https://business.anorbank.uz/> ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2021–2024-yillar davomida Anorbank AJ tomonidan ajratilgan kreditlar hajmi 93% ga, kredit oluvchilar soni esa 83% ga oshgan. Bunday o'sish bankning raqamli texnologiyalarni joriy qilishi, kredit olish jarayonining soddalashtirilishi va tadbirkorlik muhitining yaxshilanishi bilan bog'liq. Kredit portfeli hajmining kengayishi bilan birga, risklarni boshqarish tizimining takomillashuvi bank faoliyatining barqarorligini ta'minlab bormoqda.

Yana bir muhim jihat – bu ajratilgan kreditlarning iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha taqsimotidir. Anorbank AJ kredit siyosati doirasida savdo, xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi va ishlab chiqarish sohalariga alohida e'tibor qaratadi. Quyidagi 2-jadvalda ushbu sektorlar bo'yicha kreditlarning ulushi ko'rsatilgan.

**2-jadval****Anorbank AJ kreditlarining tarmoqlar bo'yicha taqsimoti (%)**

Sektor	2021	2022	2023	2024
Savdo	30	28	26	25
Xizmat ko'rsatish	25	27	28	30
Qishloq xo'jaligi	20	22	23	25
Ishlab chiqarish	25	23	23	20

Manba: <https://business.anorbank.uz/> ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Ushbu jadvaldan ko'rinadiki, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi sohalariga ajratilgan kreditlar ulushi yildan-yilga oshib bormoqda. Ayniqsa, 2024-yilda xizmat ko'rsatish sohasi 30% ulush bilan eng yirik kredit oluvchi soha bo'lib chiqdi. Bu xizmat sohasining iqtisodiy faolligi oshganini va ushbu segmentda banklar uchun xavfsiz kreditlash imkoniyatlari kengayganini anglatadi. Ishlab chiqarish va savdo sohalariga berilgan kredit ulushi esa nisbatan pasaygan bo'lib, bu sohaga oid risklarning ortib borayotgani yoki raqobat kuchaygani bilan izohlanadi.

Yuqoridagi statistik tahlil Anorbank AJ tomonidan amalga oshirilayotgan kredit siyosati dinamik va bozor talablariga mos yo'naltirilganini ko'rsatadi. Bankning kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlari bilan ishlashdagi tajribasi, faol diversifikatsiya siyosati va sektorlararo balansni saqlashga qaratilgan yondashuvi kelgusida kredit portfelinin sifatini oshirishga xizmat qilishi kutilmoqda.

**Muhokama:** So'nggi yillarda O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirishga qaratilgan siyosiy-iqtisodiy islohotlar bank sektorining kreditlash salohiyatini sezilarli darajada oshirdi.



Ayniqsa, tijorat banklari tomonidan kichik va o'rta biznesga mo'ljallangan moliyaviy xizmatlar turining kengayishi, ularning qulay va soddalashtirilgan tartibda taqdim etilishi iqtisodiy faollikni rag'batlantirishga xizmat qildi. Anorbank AJ misolida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, bank kredit portfeli yildan-yilga o'sib bormoqda, bu esa kredit olish imkoniyatlari oshayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, kredit resurslarini yo'naltirishda sektorlar kesimida diversifikatsiya va ixtisoslashtirilgan yondashuvlar amalda qo'llanilmoqda.

Biroq mavjud yutuqlar bilan birga muammoli jihatlar ham mavjudligini e'tirof etish zarur. Anorbank AJda kreditlash jarayoni zamonaviy texnologiyalarga asoslangan bo'lsa-da, ba'zi hollarda tadbirkorlar tomonidan garov ta'minoti masalasida qiyinchiliklar kuzatilmoqda.

Kredit stavkalarining nisbatan yuqoriligi va kredit olish uchun zarur hujjatlarning ko'pligi ayrim kichik biznes subyektlari uchun to'siq bo'lib qolmoqda. Shuningdek, bank tomonidan taklif qilinayotgan kredit turlari hali barcha turdagi tadbirkorlik faoliyatini to'liq qamrab olmagan. Shu bois, kreditlash siyosatini liberallashtirish va moslashuvchan mahsulotlar ishlab chiqish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Raqamlashtirish jarayoni kreditlash samaradorligini oshirishda asosiy drayver sifatida namoyon bo'lmoqda. Anorbank AJ tomonidan joriy etilgan onlayn ariza topshirish tizimi, elektron hujjatlar asosida tezkor ko'rib chiqish va qaror qabul qilish mexanizmi kredit olish jarayonini sezilarli darajada yengillashtirgan. Bu holat tijorat banklarining xizmat ko'rsatish sifati va tezligini oshirgan holda, mijozlar sonining ko'payishiga ham sabab bo'lmoqda. Shunga qaramay, ba'zi tadbirkorlar raqamli xizmatlardan foydalanish uchun yetarli bilim va texnik imkoniyatlarga ega emasligi sababli ular raqamli moliyaviy xizmatlardan chetda qolmoqda. Bu esa moliyaviy inkluzivlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Anorbank AJ misolida kreditlash tizimidagi yutuqlar bilan birga, uni takomillashtirish uchun hali ham sezilarli imkoniyatlar mavjud. Kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini pasaytirish, garovsiz yoki kafillik asosidagi kreditlarni ko'paytirish, mahsulotlarni sektorlar ehtiyojiga moslashtirish, shuningdek, moliyaviy savodxonlikni oshirish orqali bank va mijozlar o'rtasidagi ishonch mustahkamlanadi. Bankning ichki siyosatini moslashtirish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada kuchaytirish orqali tadbirkorlik subyektlarini kreditlash tizimini mukammallashtirish mumkin.

**Xulosa.** Tahlillar shuni ko'rsatdiki, Anorbank AJ tomonidan tadbirkorlik subyektlarini kreditlashda raqamli yondashuvlar, mahsulotlar xilma-xilligi va xizmatlar sifati doimiy ravishda takomillashib bormoqda. 2021–2024-yillar davomida ajratilgan kreditlar hajmi va mijozlar sonining izchil o'sishi bankning ushbu yo'nalishda faol ishtirok etayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, kredit stavkalari, garov ta'minoti talablari va moliyaviy savodxonlik darajasining pastligi hali ham ayrim tadbirkorlar uchun muhim to'siqlar bo'lib qolmoqda. Shunday ekan, kreditlash siyosatini moslashuvchan qilish, imtiyozli va garovsiz kreditlar ulushini oshirish, shuningdek, moliyaviy-ma'rifiy dasturlarni kengaytirish orqali Anorbank AJ va umuman tijorat banklari tomonidan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada samarali qilish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Nematulloyev, S.S., 2024. The role of commercial banks in financing small businesses in Uzbekistan. Asian Journal of Business and Policy.
2. Rao, C.D., 2025. A conceptual framework for analyzing the performance of commercial banks in the Uzbekistan financial system. ResearchGate.
3. Asian Development Bank (ADB), 2019. Small and medium-sized enterprise finance in Uzbekistan: Challenges and opportunities. ADB Working Paper Series.
4. Bessonova, E., 2024. Effect of subsidized lending programs on SMEs in Russia. Central Bank of Russia Working Paper No. 140.
5. Popova, T., 2024. COVID-19, corporate non-performing loans, and corporate lending dynamics in Russian regions. SSRN Electronic Journal.
6. Barinova, V., Zemtsov, S. and Malkina, M., 2023. From direct SMEs' support to entrepreneurship policy in Russia. Journal of Entrepreneurship Policy.
7. OECD, 2024. Financing SMEs and Entrepreneurs 2024: An OECD Scoreboard. OECD Publishing.
8. World Bank, 2017. Survey of national development banks. Washington, DC: The World Bank.
9. World Bank, 2019. SME Finance: Improving access to finance for small and medium enterprises. Washington, DC: The World Bank.
10. Wang, F., 2022. An empirical equilibrium model of formal and informal credit markets in developing countries. arXiv preprint.
11. Malkova, A., Peter, K.S. and Svejnar, J., 2021. Labor informality and credit market accessibility. arXiv preprint.
12. Bertoni, F., Colombo, M., Quas, A. and Signore, S., 2019. The impact of EU loan guarantee instruments on SMEs' economic performance: An econometric study. EIF Working Paper Series, No. 2019/59.
13. Brown, J.D. and Earle, J.S., 2017. Finance and growth at the firm level: Evidence from SBA loans. Journal of Finance and Economics.
14. <https://business.anorbank.uz/>
15. <https://cbu.uz/>
16. <https://nbu.uz/>